

O'TKIR HOSHIMOVNING "IKKI ESHIK ORASI" ASARIDA QAHRAMONLAR ICHKI DUNYOSI TAHLILI

Jo'rayev Olim Ergashevich

Buxoro

Annotatsiya. O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarida insonlarning turli taqdiri, inson hayotining nechog'lik murakkab ekanligi tasvirlangan. Asar qahramonlarining so'zlari, o'yu-xayollari, hissiyotlari orqali yozuvchi o'sha davr insonlarining yashash sharoitini yoritib bergan. Ushbu maqolada asar qahramonlarining ichki monologi, ichki holati, nutqi va konseptual dunyoqarashi orqali til va tafakkur uyg'unligining badiiy ifodasi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. Badiiy obraz, hissiyot, inson, ichki monolog, psixologik rezonans.

Аннотация. В произведении Откира Хошимова «Между двух дверей» описываются разные судьбы людей и сложность человеческой жизни. Через слова, мысли и чувства героев произведения писатель раскрывает условия жизни людей того времени. В данной статье анализируется художественное воплощение гармонии языка и мысли через внутренний монолог, внутреннее состояние, речь и концептуальное мировоззрение героев произведения.

Ключевые слова. Художественный образ, эмоция, личность, внутренний монолог, психологический резонанс.

Abstract. In the work "Between Two Doors" by Otkir Hoshimov, the different destinies of people and the complexity of human life are described. Through the words, thoughts, and feelings of the heroes of the work, the writer sheds light on the living conditions of the people of that time. This article analyzes the artistic expression of the harmony of language and thought through the inner monologue, inner state, speech, and conceptual worldview of the heroes of the work.

Keywords. Artistic image, emotion, person, inner monologue, psychological resonance.

"Ikki eshik orasi" asari – bu nafaqat tarixiy voqealarni tasvirlagan roman, balki inson taqdiri, uning ruhiyatidagi qarama- qarshiliklar, vijdon, sadoqat, gunoh, nafrat kabi tuyg'ular yoritilgan falsafiy asardir. Yozuvchi asarda inson psixologiyasini, ichki kechinmalarini hamda hayot tarzini psixologik jihatdan ochib bergan.

Psixologiyada inson tafakkuri, ichki hissiyoti, nutq hosil bo'lish jarayonini hamda so'zning inson ongiga ta'sirini ham o'rganiladi. Fikr va nutq o'rtasida bog'liqlik inson ongida kechadigan psixologik jarayon hisoblanadi. Yozuvchi "Ikki eshik orasi" asarida til vositasida fikrning emotsional qatlamini ochadi. Qahramonlar nutqida og'riq, qo'rquv, mehr va nafrat kabi ichki kechinmalar til orqali ifodalanadi.

Asarda psixologik hodisalardan biri- bu ichki monologdir. Bu usul orqali qahramonlarning ichki holati, orzu- maqsadlari, voqeaga nisbatan munosabati o'quvchiga yetkaziladi. Masalan:

“Bilaman, siz – tiriklar o’limdan qo’rqasiz. Tirikligimda men ham qo’rqar edim. Yo’q o’lim unchalik dahshatli emas. Ertami kechmi hamma ham o’ladi-da! Hayot nima o’zi?.. Xudo hadya etgan in’om. Ammo odamlar har xil. Birov shu in’omni boshqalar bilan baham ko’radi. Birov boshqalarnikini ham qo’shib olgisi keladi. Shu bilan umri uzayib qoladigandek. Gap qachon o’lishdami? Qanday o’lishda emasmi?” kabi jumalarda Kimsanning ongida kechgan nutqida uning matonatligi va ma’naviy mushohadaga boy ekanini o’quvchi anglaydi. Ya’ni uning “qisqa, ammo mazmunli yashashni uzoq, ammo mazmunsiz yashashdan afzal ko’rishi” o’quvchi psixologiyasiga kuchli ta’sir qiladi va o’quvchini fikrlashga majbur qiladi.

Kognitik tahlilga ko’ra badiiy matnda inson dunyoqarashini belgilovchi omil – konseptdir. “Ikki eshik orasi”da “vijdon”, “gunoh”, “sof muhabbat”, “nafrat” kabi konseptlar asosiy o’rinda turadi. Misol uchun, “nafrat” konsepti asar davomida turli obrazlarda namoyon bo’ladi.

Robiyaning xayolida kechgan “Nahotki? Shunday ko’hli, shunday dono Ra’no kelinoyim nahotki ilon bo’lsa? Shomurod tog’amni urushga kuzatayotgan kuni oshxona devorining orqasida o’ksib - o’ksib yig’laganini o’zim ko’rgan edim-ku! Erining oyog’iga tiz cho’kib iltijo qilganida oppoq ko’ylagining etagi loy bo’lib ketganini o’zim ko’rgan edim-ku! O’shanda ko’zimga oppoq Farishta bo’lib ko’ringan Ra’no yangam shu emasmidi! Bugun xuddi o’sha ko’ylagini kiyib olib, Umar zakunchi bilan... Farishtaning ilonga aylanishi shunchalik oson ekan-da! Axir tog’am o’lgani yo’q-ku! Kecha uning oyog’iga tiz cho’kib “sensiz o’lib qolaman” desa-da, bugun... Tog’am u yoqda qon kechib yursa-yu kelinoyim bu yoqda... Odamlar muncha yomon! Muncha noinsof?!” bu parchani kognitiv yondashuv nuqtayi nazaridan tahlil qiladigan bo’lsak, unda qahramonning voqeaga bo’lgan emotsional reaksiyasi, ya’ni nafrat konseptining shakllanganini ko’rishimiz mumkin. Qahramon nutqidagi “Nahotki!”, “muncha yomon”, “muncha noinsof!”kabi jumalar nafrat konseptidan tashqari, uning bo’lgan voqeaga nisbatan munosabatini ham bildiradi. Qahramon ongidagi Ra’noga nisbatan “Farishta” ijobiy konsepti ishlatilishi va uning keyinchalik “ilon” salbiy konseptiga o’zgarishi kuzatiladi. Bu orqali qahramon tafakkurida semantic maydon almashinadi, ya’ni ijobiy maydon salbiy maydonga almashadi.

Xullas, “Ikki eshik orasi”da ruhiy holatlar til orqali namoyon bo’ladi. Bu ichki monologlar, turfa xil hissiyotlar orqali amalga oshadi. Shuning uchun ham bu asarni shunchaki o’qib anglab bo’lmaydi. Asardagi qahramonlar holatini his qilmaguncha muallifning ushbu asarni yozishdagi asl maqsadini anglab bo’lmaydi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O’tkir Hoshimov, Ikki eshik orasi. – Toshkent: “Meriyus” nashriyot, 2017.
2. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Toshkent: “Sangzor” nashriyoti 2006.
3. Gulamovna U. S(2022) O’tkir Hoshimov asarlarida insoniy fazilatlarining ifodalanishi. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali

4. O'zbek adabiyoti tarixi 4-qism. Toshkent 2014

5. Kenjaevna, R. N. (2022). THE ROLE OF DIALOGUE IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' SPEAKING SKILLS IN FRENCH LESSONS AND THE ROLE OF MULTIMEDIA LESSONS AND INFORMATION TECHNOLOGY. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 8(3), 15-17.